



FINANCIAL RELATIONS IN THE TIME OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS

Beginqulov Kamoliddin Ergashevich ¹

¹ Boyuvut district of Syrdarya region

Teacher of History, Secondary School No. 17

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4715130>

ARTICLE INFO

Received: 13th April 2021

Accepted: 17th April 2021

Online: 19th April 2021

KEY WORDS

Agriculture, trade, handicrafts, land tenure, foreign trade, coinage, monetary system, Sar Shumor, Sar Tree, Dudi, Avariz, Ulak, Mir Hazaran, Hiroj, the Great Silk Road.

ABSTRACT

This article discusses the financial situation of Movarounnahr during the reign of Amir Temur and the Temurids. The economic situation of the territories during the Timurid period is considered. The impact of reforms in agriculture, trade, handicrafts, foreign trade, and land tenure on the well-being of the people will be analyzed in detail.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLAR

Beginqulov Kamoliddin Ergashevich ¹

¹ Sirdaryo viloyati Boyuvut tumani 17-umumta'lim maktabi Tarix fani o'qituvchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 13-aprel 2021

Ma'qullandi: 17-aprel 2021

Chop etildi: 19-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

Qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, yer egaligi, tashqi savdo, tanga-pul siyosati, suyurg'ollik tizimi, Sar shumor, Sar daraxt, Dudi, Avariz, Uloq, Mir hazaron, Xiroj, Buyuk ipak yo'li.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahrning moliyaviy holati haqida so'z boradi. Temuriylar davridagi hududlarning iqtisodiy holatiga nazar tashlanadi. Qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, tashqi savdo, va yer egaligi sohalarida amalga oshirilgan islohotlarning xalq farovonligiga ta'siri atroflicha keng miqyosda tahlil qilinadi.



Amir Temur va Temuriylar davridagi Movarounnahrning moliyaviy holati boshqa mavzular bilan bir qatorda dolzarb mavzular qatoriga kiradi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bu mavzuni yanada chuqurroq o'rganishga e'tibor kuchaydi. Tadqiqotchilarning izlanishlari natijasida Temuriylar davrida Movarounnahrning qishloq xo'jaligi, agrar munosabatlar, dehqonchilik, yerga egalik qilish, hunarmandchilik va savdo munosabatlari atroflicha keng miqyosda yoritib berildi. Mavzuga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, Amir Temurning hokimiyatga kelishi va markazlashgan davlat barpo etilishi bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga intilish kuchayganligi, bunda sug'orish inshootlarining qurilishiga katta e'tibor berilganligini qayd etish lozim. Shuningdek, dehqonchilikda turli ekinlarni Movarounnahrda viloyatlarning joylashuviga qarab yetishtirish haqida tarixchi olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida bug'doy va paxta, Xorazmda guruch, Farg'ona vodiysida arpa, tariq ekilgan bo'lsa mosh va no'xat yetishtirish barcha hududlar uchun xos bo'lgan.[4] Ya'ni Movarounnahrda har bir viloyat ma'lum bir ekin turini ekishga iqtisoslashtirilgan. Amir Temurning qishloq xo'jaligida amalga oshirgan bu islohoti shubhasiz dehqonchilikning yuksalishiga va hosildorlikning oshishiga xizmat qilgan. Moliyaviy munosabatlar bilan bevosita bog'liq sohalardan biri bu yerga egalik qilish shakllaridir. Amir Temur va Temuriylar davrida davlat yerlarini in'om qilish suyurg'ol shaklida bo'lgan. Bizga ma'lumki, Amir Temurning ajdodlari suyurg'ol asosida Kesh viloyatiga egalik qilganlar. Tadqiqotchilarning bunday xulosaga kelishiga sabab o'rta asr

mualliflaridan xususan Mahmud ibn Valining " Oliy xazratlarining baxtli tug'ulishi, ikki baxtli yulduz sohibi Amir Temur Ko'ragonning joyi Keshda edi va uning ajdodlari o'sha viloyatda merosxo'rlik huquqiga ega edilar" degan fikrlari turtki bo'lgan.[4] Demak suyurg'ollik tizimi Amir Temurgacha mavjud bo'lgan edi va uning hukmronligi davrida keng rivojlandi. Bizga ma'lumki, Amir Temur tomonidan isloh qilingan tanga-pul sohasi o'zining muhimligi bilan ajralib turadi. Amir Temur eng avvalo, Mo'g'ullar davrida deyarli tanazzulga uchragan tanga-pul tizimini butunlay qaytadan isloh qildi. Bu davrda Movarounnahr hududida 20 dan ortiq zarbxonalar bo'lgan. Tangaga qo'shiladigan kumush miqdori doimiy ravishda nazorat qilib borilgan. Tangalarning birinchi betiga "Suyurg'atmishxon yorlig'i bilan Amir Temur Ko'ragon" ikkinchi betiga to'rt xalifa Abu Bakr, Umar, Usmon, Alining ismlari zikr etilgan.[2] Amir Temur davlat moliyasini mo'g'ul va boshqa bosqinchilarga qaramligini uzil-kesil tugatdi. Ulkan davlatning mustaqil moliyasini yaratdi va uni muttasil takomillashtirib bordi. Markazlashtirilgan davlat tarkibiga kiruvchi barcha mamlakatlar moliyasini bir tizimga birlashtirdi. Amir Temur davlatida byujetning mavjudligi masalalari, xazinaning chiqim qismi uchun soliq yig'ishning barqaror tizimi ishlab chiqilgani tadqiqotlarda atroflicha yoritilgan. Asosiy soliq to'lovchilar dehqon, hunarmand va savdogarlarga soliq to'lashda bir qator yengilliklar berilgan. Temur tuzuklari asarida bo'ysindirilgan o'zga mamlakat fuqarolari xohlasalar eski tizim bo'yicha soliq to'lashi mumkinligi, yoki yangi joriy qilingan tizim bo'yicha soliq to'lashlari haqida ma'lumot keltirib



o'tilgan.[3] Bundan ko'rinib turibdiki, soliq to'lash sohasida fuqaroning xohish-istagi inobatga olingan. Tadqiqotchilarning fikricha, Temuriylar davrida 20 dan ortiq soliq turlari bo'lgan. Shulardan asosiylari haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, "Sarshumor" – jon boshiga to'lanadigan soliq miqdori 1 dinordan 10 dinorgacha, "Sar daraxt"- mevali daraxtlar va uzumzorlar uchun to'lanadigan soliq pul shaklida olingan, "Dudi"- tutun solig'i har bir xonadon o'z ehtiyojlari uchun tayyorlanadigan o'tindan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliq, "Avariz"- favqulodda soliq turi urush chiqimlarini qoplash maqsadida, "Uloq"- davlat xizmatidagi odamlarga beriladigan ot, "Mir hazoron"- ma'lum bir joyda yashovchi aholidan shu yerdagi qo'shinni ta'minlashga olinadigan soliq.[2]Soliqlarni turi ko'p bo'lishi bilan birga yuqorida aytib o'tganimizdek soliq to'lovchilarga bir qator yengilliklar berilgan. Qurg'oqchilik bo'lgan yillari dehqonlardan soliq olinmagan, chorva kasalga uchrab nobud bo'lgan yillari chorvadorlardan soliq olinmagan. Savdogar va hunarmandlarga ham shunday imkoniyatlar berilgan. Ma'lum davrlarda savdogar va hunarmandlardan juda kam miqdorda soliq olinganligini ko'rishimiz mumkin. Bu davrda tashqi savdo ham yuksak darajada taraqqiy etganligini ko'rishimiz mumkin.Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra bu davrda Samarqand va Buxorodan chiqqan savdo karvonlarining yo'nalishi 2 guruhga bo'lingan ya'ni shimol va janub yo'nalishiga. [1] **Xulosa** sifatida shuni aytish mumkinki, Amir Temurning oqilona

iqtisodiy siyosati natijasida mintaqada erkin iqtisodiy muhit shakllantirilishi, dehqon, hunarmand umuman olganda soliq sohasidagi barqarorlik, Vizantiya, Genuya, Fransiya, Ispaniya, Angliya, Xitoy, Hindiston davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi va Buyuk ipak yo'lidan oqilona foydalanish natijasida Temuriylar davlatida barqaror moliyaviy munosabatlar o'rnatildi. Yana bir muhim jihatlardan biri savdo yo'llari logistikasi Amir Temur davrida qayta tiklangan savdo yo'llari aniqroq qilib aytadigan bo'lsak Buyuk ipak yo'li savdo tarmoqlarining qayta tiklanishi va nazorat qilinishi natijasida mintaqada hududida barqaror logistik tizim shakllantirildi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, sharq va g'arb qaytadan bir-biri bilan bog'landi. Bunday barqaror logistik tizimni barpo qilish hozirgi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi va bu borada yurtimiz qo'shni va mintaqada davlatlari bilan muzokalarni olib bormoqda. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, "O'zbekiston, Qirg'iziston, Xitoy" temir yo'llar tarmog'ini barpo qilish bo'yicha rejalar, "Turkiy tilli davlatlar kengashiga a'zo davlatlar hamkorligida "O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya orqali Yevropa temir yo'llar tarmog'ini shakllantirish bilan bog'liq muzokaralar hozirgi kunda qizg'in muhokamada bo'lib turibdi. Bunday logistik tarmoqlar shakllantirilsa bevosita Temuriylar davrida shakllangan barqaror logistik tizim qaytadan hozirgi zamon muhitida yangi bosqichda shakllanadi deb o'ylayman.



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.Muhammadjanov- Temur va Temuriylar davri saltanati.
- 2.I.To'xtiyev- Temuriylar saltanatining tangalari.
- 3.Temur tuzuklari.
- 4.R.K.Mukminova.B.Ahmedov - Amir Temur.